

**BO'LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINING  
TIKUVCHILIK BUYUMLARINI LOYIHALASHGA OID MAXSUS  
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA'LIMNING  
O'RNI.**


**Sodiqova Aziza Hayitovna**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika  
universiteti 3-bosqich doktoranti, dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
azizasodiqova@296gmail.com*

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasining "Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari" deb nomlangan uchinchi bobining "Oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish" deb nomlangan birinchi paragrafida "Mustaqil ta'lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy materiallarni keng joriy etish" masalalarida ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishlari, mustaqil ishlash malakalarini uzluksiz oshirish orqali mutaxassislarning zaruriy kompetensiyalarini, ijodiy yaratuvchanlik, tadqiqotchilik, mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kundagi ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar talabalarni individual ta'lim traektoriyalariga asoslangan mustaqil fikrlashini rivojlantirish, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga oid muammolarni bartaraf etishga qaratilgandir. Oliy ta'lim muassasalarida bu vazifalarni amalga oshirishga bosqichma-bosqich o'tish rejalashtirilgan. Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'lim soatlari ulushini kamligi, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllanmaganligi, o'quv jarayonida talabalarda tashkilotshilik qobiliyati, kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish zamon talabiga mos kelmasligi asosiy muammolar qatoriga kiradi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida mustaqil ish auditoriyadan tashqari, analitik qobiliyatlarni rivojlantirish, nazorat qilish va o'quv vaqtini rejalashtirish, o'quv ishlarini oqilona tashkil etish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish, zarur ma'lumotlarni mustaqil izlashni,



auditoriyada o'quv materialini ijodiy idrok etish va tuchunishni, talabalarning auditoriyadagi bilim faoliyatining turli shakllarini ta'minlashga qodir bo'lgan ta'limni tashkil etish shakli sifatida qaraladi.

Demak, mustaqil ish o'quv jarayonini tashkil etishning bir shakli bo'lib, talabalarning faolligini, mustaqilligini va bilim olishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantiradi.

Mustaqil ta'lim olish etuk mutaxassis bo'lib etishishning muhim omili hisoblanadi. Bu ayniqsa kasbiy tayyorgarlik tizimida yaqqol namoyon bo'ladi. Ajdodlarimiz ham yosh avlodning kasb-hunar egallashiga, etuk, tarbiyali, taraqqiyotga xizmat qiluvshi inson bo'lib etishishiga ahamiyat berishgan.

Sharqning buyuk allomalari o'z ijodlarida mehnat qilishni, kasb-hunar egallashning ahamiyatini ta'kidlab o'tganlar. Muhammad al Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Farg'oniy, Axmad Yassaviy, Yusuf Xos-Hojib, Shayx Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Imom al Buxoriy, Ahmad Yugnakiy va Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlar mehnatni, o'z ustidan tinimsiz izlanishni, kasb-hunarni ulug'laganlar.

Yuqorida sanab o'tilgan buyuk allomalar o'z hayoti va ijodiy faoliyatlarida kasb-hunar egallashni ulug'lash bilan bir qatorda kasb-hunar egallashda mustaqil izlanishning naqadar muhimligi ta'kidlaganlar.


Mustaqil ta'limni tashkil qilishni pedagogik muammo sifatida V.I.Andriyanova, R.T.Magzumov, U.N.Nishonaliev, N.Sayidahmedov, A.R.Xodjaboev, Q.R.Husanboeva, R.K.SHoriev E.I.Zakinov, S.Matshanov, Z.Nishonova, T.Niyazmetova, J.Tolirova, O'.Q.Tolirov, B.M.Turdibaeva, N.Xalilov, SH.SHarirov, SH.YUnusova va boshqalar o'z ishlarida tadqiq

F.A.Disterveg o'quvshilarni aqliy kushlarini rivojlantirish g'oyasini ko'rib shiqib, shuni ta'kidlagan: "Rivojlanish va ta'lim hesh bir insonga berilishi va etkazilishi mumkin emas. Har kim bunga shaxsiy faoliyati bilan erishishi kerak. Inson o'zining mustaqil yo'l bilan egallamagani - uniki hisoblanmaydi",- deb fikr bildirgan.

L.V.Golish va D.M.Fayzullaevalar o'zining olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida ta'lim oluvshilar tomonidan mustaqil ishni bajarishda ularning faoliyati tizimida ko'rsatilgan har bir elementlarning muvaffaqiyatli rejalashtirish, tashkillashtirish, monitoring va baholash zarur ekanligini asoslab berishgan.

M.Barakaevning ilmiy-redagogik tadqiqot ishlarini o'rganib, "Mustaqil ta'lim- oliy ta'lim tizimida ta'limning shunday bir shaklidirki, bunda o'quv faoliyati redagog tomonidan boshqarilib, torshiriqlar beriladi, maslahatlar uyushtiriladi va bajarilishi nazorat qilinadi" deb ta'kidlaydi.

Pedagog olimlarning aksariyat qismi mustaqil ta'limni tashkil etish jarayonini faollashtirish masalasini umumiy muammo sifatida qaraydilar.



Jumladan, bu boradagi ishlarning bir qismida talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini tashkil etishga shaxs nuqtai nazaridan yondashishi ko'zga tashlanadi.

Bunda u faol, ta'limda kasbiy mahoratini oshirishda yuqori natijalarga erishishga intiluvchi, pedagogik kasbini tanlash va egallash ishida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi shaxsni shakllantirishda mustaqil ta'lim muhim omil sifatida qaraladi.

Mustaqil ta'lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo'lishi ham talab etiladi.

Mustaqil ta'lim shaxsning o'zi tomonidan boshqarilishini e'tiborga olib, bu faoliyat bilan inson erkin holda va istagan vaqtida manbalardan o'zi tanlab, maqsad, vosita, mazmun nuqtai nazaridan foydalanishi mumkin.

Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu-o'qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarni aniqlash va tanlash, ularni qiynalmasdan hamda tashqi ta'sir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir.


Mustaqil ta'lim bevosita mustaqil fikrlash bilan uzviy bog'liqligi sababli unga berilgan ta'rifni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq: "Mustaqil fikrlash - insonning o'z oldida turgan muammolarni maqsad va vazifalarini belgilagan holda o'z bilimi va hayotiy tajribalariga tayanib, turli yo'l, usul, vositalar yordamida, o'zining intellektual imkoniyatlari darajasida mustaqil ravishda hal qilishdan iborat bo'lgan aqliy faoliyatidir".

Yoshlarda mustaqil ish bajarish ko'nikmalarini shakllantirishni turli o'quv predmetlarini o'qitishda amalga oshirish mumkin. Masalan, matematik olimlar S.I.Demidova va L.O.Denishevalar mustaqil ta'limga quyidagisha ta'rif berganlar:

"O'quvchilarning o'qituvchi tomonidan mustaqil ish mazmuni, mustaqil ishlashni faol tashkil etishga, ularni oldiga quyilgan didaktik maqsadlarni bajarishga yo'naltirilgan va shunga maxsus ajratilgan vaqt tuchuniladi. Bilimlarni qidirish, ularni anglab etish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish bilimlarini umumlashtirish, tizimlashtirish jarayoni tuchuniladi".

Bu ta'rifda faoliyat xususiyatlari: faollik, tizimlilik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik haqida so'z yuritilgan. Biroq mustaqil ta'limning bir jihati sifatida mustaqillik tilga olingan. Mustaqil tafakkur ta'limning bir qismi bo'lishi mumkin.

Texnologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilarda mustaqil bilim olishga qiziqish va qobiliyatni pedagogik madaniyatni takomillashtirishga chorlovchi omil sifatida shakllantirish lozim. Muammoni hal etishning muhim omili sifatida texnologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bo'lajak o'qituvchilardan pedagogik takomillashish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish va malakasini oshirish talab etiladi.



Talabalar mustaqil ta'lim olishga qiziqish uyg'otuvshi kuch, motiv sabablarga bog'liq holda ular o'z oldilariga mustaqil ta'lim mazmunini tashkil etuvshi maqsad va vazifalarni belgilab oladilar. Buni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Mustaqil faoliyat olib borishda muhim hisoblangan siyosiy mustaqil ta'lim, zamonaviy voqelik va ularga bo'lgan munosabat;

2. Tanlagan yo'nalishi bo'yicha faoliyat olib borish, talabaning mustaqil ta'lim olishlarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan tayyorgarlik davridagi kasbiy mustaqil ta'lim;

3. O'quv fanlarini yanada chuqurroq o'rganishga, shaxsiy-hayotiy rejalari, shaxsiy qiziqish asosida yo'naltirilgan mustaqil ta'lim;

4. O'z iste'dodini va sevimli mashg'ulotlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan mustaqil ta'lim.

5. O'z xarakterini tarbiyalashga qaratilgan mustaqil ta'lim.

Kasbiy mustaqil ta'lim shaxsning rivojlanishida asosiy omil bo'lib, uning kelgusi faoliyatida mustaqil ishlay olish xususiyatlarini tavsiflovshi bo'lib xizmat qiladi. Mustaqil ta'lim mazmuni mehnat xarakteriga bevosita emas, balki bilvosita ta'sir etib, mustaqil ta'lim uchun imkoniyat tora olishiga bog'liq bo'ladi. Mustaqil ta'lim talabaning kelgusi faoliyati davomida o'z yo'lini belgilashning vositasi bo'lib, talaba o'z imkoniyatlarini baholay olishiga sabab bo'ladi. Talabada aniq ifodalangan ehtiyoj sezilmasada, biroq har bir insonda albatta, o'zini qoniqtirishga, namoyon etishiga, o'zining mavjudligini namoyon qilishga bo'lgan nobiologik ehtiyoj bo'ladi.

Bo'lajak o'qituvchi o'z bilimini mustaqil oshirish faoliyatini aniq bir maqsadga yo'naltirishi va bu maqsadga erishishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilishi kerak.

1. O'z bilimini mustaqil oshirish mazmunini bo'lajak texnologik ta'lim mutaxassisligi bo'yicha pedagogik amaliyot o'tayotgan ta'lim muassasasining o'quv ustaxonasidagi aniq sharoitlarga, amaliyotning sharoitlari, talablariga moslashtirishi kerak.


2. Bo'lajak o'qituvchi ma'lum maqsad asosida va ma'lum tartibda o'zida quyidagi sifatlarni shakllantirib borishi kerak:

- talabalarning intilishlari, qiziqishlarini chuqur his qilish, tuchunish, ularning ma'naviy ehtiyojlarini hisobga olib bilish;

- talabalar bilan emmosional aloqa o'rnatish, ularning aqliy, axloqiy va amaliy faoliyati tomonlariga faol ta'sir etish.

3. Bo'lajak o'qituvchi umumiy pedagogika, psixologiya, mehnat gigienasi va fiziologiyasi, texnika va texnologiya fanlari bo'yicha savollar ro'yxatini mustaqil o'rganib chiqishlari shart.

4. Bo'lajak o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratini oshirish ustida ishlash tizimining eng samarali usullari, yo'llarini tanlab olishi, texnologik jarayon va texnik ob'ektlarni to'g'ri tanlab faoliyat ko'rsatishi kerak.



5. Bo'lajak o'qituvchi aniq sharoitlarni hisobga olgan holda va ularga mos tarzda individual holda yoki jamoa bilan birga o'z bilimini oshirish shakllaridan foydalanishi, amaliy mashqlar bajarishi maqsadga muvofiq.

6. Bo'lajak o'qituvchi o'z bilimlarini oshirishni doimiy ijodiy izlanishlar tarzida tashkil etish va ma'lum maqsadga yo'naltirish zarur.

Biz yuqorida keltirilgan tadqiqotshi olimlarimizning mustaqil ta'limni tashkil qilish jarayonlari to'g'risida bildirgan fikr mulohazalarini va ta'riflarini va bo'lajak o'qituvchilarning bu boradagi vazifalari va maqsadlari hamda shartlarini ko'rib chiqdik. Tadqiqotimiz mazmunidan kelib shiqib, tikuvchilik buyumlarini loyihalashda bo'lajak o'qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyatini "Texnologik ta'lim" yo'nalishi "Texnologiya ta'lim rraktikumi" va "Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash (tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish)" fanlari misolida ko'rib shiqamiz. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchisining "Texnologiya ta'lim praktikumi" va "Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash (tikuvchilik buyumlarini loyihalash va modellashtirish)" fanlarini o'rganish bo'yicha maxsus kompetensiyasini shakllantirishdan maqsad, texnologik ta'limda bir qator amalga oshirishi kerak bo'lgan vazifalar bilan birga, tikuvchilik buyumlarini loyihalash jarayonlarini to'liq o'zlashtirgan malakali mutahasis va komrtentligi yuqori texnologiya o'qituvchisini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratishdir. Bu fanlarimizning asosiy soatini amaliy mashg'ulot soatlari tashkil etishini inobatga olsak, talaba amaliy mashg'ulot torshiriqlarini bajarishi uchun ko'r vaqt zarur bo'ladi. Tabiiyki, talaba o'z sohasiining etuk mutaxasisi bo'lishi uchun o'z ustida tinimsiz izlanishi va loyihalash jarayonlarini mustaqil bajara olishi kerak. Buning uchun, talaba darsdan tashqari jarayonlarda ham mutahasisligi bo'yicha yoki ishlab malakasini oshirishi kerak, yoki o'qib bilimini yana takomillashtirishi kerak.

Xorij va mamlakatimiz "Texnologik ta'lim" yo'nalishida tikuvchilik buyumlarini loyihalovchi mutahasis-pedagoglarda maxsus kompetensiyalarni shakllantirish tajribasini o'rganish shuni ko'rsatdiki sanoat korxonolari, tashkilotlar va jismoniy shaxslarning real buyurtmalarini bajarishda mutahasislik fanlarining salohiyati sezilarli darajada yuqori. Shuning uchun ham, ta'limni ishlab shiqarish (amaliyot) jarayoni bilan bog'liq shaklda tashkil etish talabaning mustaqil bilimini va amaliy malakasini oshirish imkonini beradi. Biroq, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash amaliyotida, mutahasislik fanlarining bu salohiyatdan etarlicha foydalanilmayarti. Biz shu muammoni bir echimi sifatida tadqiqotimizning mazmuni doirasidan kelib chiqib tikuvchilik buyumlarini loyihalashda bo'lajak o'qituvchilarning maxsus kompetensiyalarini shakllantirishga hissa qo'shish, hamda talabalarning mustaqil ta'lim jarayonlarini samarali tashkil qilish maqsadida tikuvchilik buyumlarini loyihalash to'garagini hamda o'quv jarayonini kompetensiyaga

asoslangan, faoliyatli dasturini ishlab chiqdik. Bu dizayn dasturi doirasida talabalar quydagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar:

- kichik guruhlarda va yakka tartibda bilim olish imkoniyati;
- tikuvchilik buyumlari tarkibiga kiruvchi har qanday kiyimni mustaqil loyihalay olishi;
- darsdan tashqari bo'sh vaqtini mazmunli va foydali o'tkazish;
- nazariy olgan bilimlarini amalda ishlab shiqarish bilan uzviy bog'lagan holda mustahkamlash;
- tikuvchilik buyumlarini loyihalovshi mutahasis sifatida shaxsiy daromadiga ega bo'lish;
- o'z-o'zini tahlil qilish va o'z-o'zini baholash;

Bu borada oliy ta'lim muassasalari "Texnologik ta'lim" yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining tikuvchilik buyumlarini loyihalashga oid maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Texnologiya fani o'qituvchisining dars mashg'ulotlaridagi, to'garak ishlaridagi olgan chuqur bilimlari mustaqil ishlash, amalda qo'llash va yangi loyihalarni yaratishlarida, izlanishlarida katta ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik ta'limning asosiy maqsadlaridan biri talabaning kelajakdagi kasbiy faoliyatining yaxlit tuzilmasini shakllantirishdir. Ta'lim faoliyatidan kasbiy faoliyatga o'tish alohida e'tibor talab qiladigan jarayondir. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'lim jarayonlarini samarali tashkil etish uchun ularda kvazi-professional faoliyatni shakllantirish lozim.

Kvazi-professional faoliyat-kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish sharoitida mustaqil ta'limdan foydalanishda hamda pedagogik amaliyotlarda samarali bo'ladi.

**Kvazi-professional** (lotin."quasi"- "deyarli", "aynan") faoliyat. Bu borada A.A.Verbitskiyning fikri, **Kvazi-professional** faoliyat bu - akademik o'quv faoliyatidan, kasbiy faoliyatga o'tishdir. YA'ni,talabalar kasbiy faoliyatni amalga oshirmaydi, balki taqlid qiladi. Kvazi-professional faoliyat talabalarga kasbiy bilimlarni, kompetensiyalarni o'zlashtirish va yangilashga imkon beradi.

Tikuvchilik buyumlarini loyihalash to'garagi mashg'ulotlarida ta'lim oluvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, kiyinish madaniyati tushunchasini kengaytirish, kasbiy bilimlarni chuqurlashtirish, kiyimning asosiy andozalarini tayyorlash, modellar yaratish, asosiy andozalardan model andozalarini shiqarish va unga bezaklar tanlash, har bir talaba istalgan dizaynda mustaqil kiyimlar tikish mazkur sohaning asosiy maqsadidir. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining etuk mutahasis bo'lib shakllanishida, kelajakda faoliyat yuritadigan sohasida muvaffaqiyatlarga erishishida mustaqil ta'limning o'rni beqiyos.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1) Barakaev.M. va boshqalar. Mustaqil ta'limni tashkil etish metodikasi.O'quv – uslubiy qo'llanma. T., “Istiqlol nuri”. 2017 yil.

2) Golish L.V., Fayzullaeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalash va rejalashtirish. T.: Iqtisodiyot, 2011. – 208 b.

3) Qo'ysinov O.A., Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. T.: “Fan”, 2009. - 92 b.

4) Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti. Ped. fan. dokt. ... diss. – T., 2012.–264 b.

5) Sodiqova A.H., Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarida maxsus kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari. Journal of new sentury innovations/ Volume–17\_Issue-1\_November\_2022.

6) Sodiqova. A.H.. Uzluksiz ta'lim tizimida nazariy va amaliy mashg'ulotni innovasion pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazish metodikasi. “Mehnat va kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda innovasion yondashuvlar”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami (2019-yil 17 may), Buxoro - 2019. 266-269 b